

## XITOY IYEROGLIFLARINI KOREYS TILIGA KIRIB KELISHI

**Bayonkhanova Iroda Furkatovna<sup>1</sup>**

<sup>1</sup> Samarqand davlat chet tillar institut, Samarqand, O'zbekiston

Koreys filologiyasi kafedra mudiri

Email: [irodabayonkhanova2208@gmail.com](mailto:irodabayonkhanova2208@gmail.com)

### **MAQOLA MALUMOTI**

### **ANNOTATSIYA:**

#### **MAQOLA TARIXI:**

*Received: 10.02.2025*

*Revised: 11.02.2025*

*Accepted: 12.02.2025*

#### **KALIT SO'ZLAR:**

*Koreya va Xitoy madaniyati, Xitoy iyerogliflari, Xitoy yozuvi, "Hanja", Koguryo, Bekje va Shilla, Choson sulolasi, Koreys tili darsliklari, Hanja yozuvi.*

*Hanja o'qitishning samarali metodikasi, o'quvchilarining yuqori motivatsiyasini va tilga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Iyerogliflarni o'rgatishning zamонавиу texnologiyalar va multimedya vositalaridan foydalanimishi o'quvchilarining bilimlarini yanada mustahkamlash va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi. Interaktiv dars metodlari, o'yinlar va kollaborativ yondashuvlar orqali iyerogliflarni o'rganish jarayoni yanada qiziqarli va samarali bo'ladi. Hanjani o'rganish jarayonida bir qator muammolar ham yuzaga keladi. Asosiy muammolar orasida iyerogliflarning murakkabligi, ularning o'qitishdagi umumiy samaradorligi va o'quvchilarining o'rganishdagi individual qiyinchiliklari mavjud. Hanjani o'rgatish jarayonida bu muammolarni hal qilish uchun, ta'lim jarayonini shaxsiylashtirish, bosqichmabosqich yondashuvlarni qo'llash, o'quvchilarga iyerogliflarni vizual va amaliy misollar orqali taqdim etish zarur.*

**KIRISH.** Xitoy iyerogliflari Koreyaga juda erta davrlarda kirib kelgan bo'lib, ularning ta'siri Koreys madaniyatiga, ta'lim tizimiga va yozuv uslubiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatgan. Bu jarayon asosan Koreyaning Xitoy bilan olib borgan siyosiy, madaniy va iqtisodiy aloqalari orqali amalga oshgan. Xitoy iyerogliflarining Koreyada qo'llanilishi uzoq vaqt davomida koreys yozuv tizimining asosini tashkil etgan va bugungi kunda ham tarixiy meros sifatida o'z o'mini saqlab qolgan.

Dastlabki davrlarda Koreys Xitoy madaniyatidan o'zlashtirgan ko'plab jihatlar qatorida yozuv tizimi ham bor edi. Xitoy yozuvi, asosan, diplomatik yozishmalar va qonun hujjatlarini tayyorlashda ishlatilgan. Ushbu yozuv tizimi Koreys jamiyatining yuqori qatlamlari orasida keng tarqalgan bo'lib, asosan, zodagonlar va hukumat vakillari tomonidan qo'llanilgan. Xitoy iyerogliflari orqali faqatgina til emas, balki Xitoyning falsafiy, diniy va ilmiy merosi ham Koreys jamiyatiga kirib kelgan. Buddha dini Koreyaga kirib kelgan davrda Xitoy iyerogliflarining ahamiyati yanada oshdi. Buddist matnlar, odatda, Xitoy yozuv tizimida yozilgan bo'lib, ularni o'qish va tushunish uchun iyerogliflarni o'rganish zarur edi. Bu esa Koreyada savodxonlik darajasini oshirishga yordam berdi. Ayniqsa, diniy marosimlar va diniy ta'lim sohasida Xitoy yozuvining roli beqiyos bo'lgan [2,61].

Xitoy iyerogliflari Koreyada "Hanja" deb nom olgan bo'lib, uzoq vaqt davomida davlat hujjatlari, tarixiy asarlar va adabiyotlarda asosiy yozuv tizimi sifatida ishlatilgan. Koreys madaniyatida Hanja orqali Xitoy tilidagi so'zlarning keng tarqalishi kuzatilgan. Koreys tilida mavjud bo'lgan so'zlarning katta qismi Hanja asosida shakllangan bo'lib, bu Koreyaning madaniy va lingvistik rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. 1443yilda Sejong Buyuk shoh tomonidan (한글)Hangul alifbosining yaratilishi Koreys jamiyatida katta inqilobni boshlab berdi. (한글)Hangul oddiy xalq tomonidan oson o'rganilishi mumkin bo'lgan yozuv tizimi edi va bu savodxonlik darajasini sezilarli darajada oshirdi. Biroq, Hanja uzoq vaqt davomida rasmiy yozuv tizimi sifatida qo'llanilgan va bugungi kunga qadar o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Xitoy iyerogliflarining Koreyaga kirib kelish tarixi uzoq asrlarga borib taqaladi. Koreys yarim oroliga Xitoy madaniy ta'siri qadimdan, xususan, Xitoyning qadimiy Xon (Han) sulolasi davridan boshlab sezila boshlagan. Xitoy iyerogliflari dastlab davlat boshqaruvi, qonunlar va diniy matnlarni qayd etish maqsadida Koreyaga kirib kelgan. Bu jarayon, asosan, Koreys va Xitoy o'rtaqidagi savdo, diplomatik aloqalar va ilmiy almashinuvlar orqali amalga oshgan.

Miloddan avvalgi II asrda Koreysning Koguryo, Bekje va Shilla kabi uchta qadimgi qirolliklari Xitoy bilan yaqin aloqada bo'lgan. Aynan shu davrda Xitoy iyerogliflari Koreys jamiyatining ta'lim tizimida va davlat hujjatlarida faol qo'llanila boshlagan. Xitoy yozuvi Koreyaga bilim va madaniyat olib kelgan, bu esa jamiyatning rivojlanishida muhim rol o'yaganan.

Shuningdek, milodiy IV asrda buddizmning Koreyaga kirib kelishi Xitoy iyerogliflarini yanada kengroq qo'llashga sabab bo'ldi. Buddist matnlar Xitoy tilida yozilgan bo'lib,

ulardan Koreys jamiyatida diniy va madaniy maqsadlarda foydalanilgan. Xitoy iyerogliflari nafaqat yozma aloqalarni osonlashtirdi, balki madaniy uzviylikni ta'minlashga xizmat qildi.

Koreys madaniyatida Xitoy iyerogliflarining keng tarqalishining yana bir sababi o'sha davrdagi ta'lim tizimidir. O'sha davrda savodxonlikka ega bo'lish va yuqori lavozimlarga erishish uchun Xitoy iyerogliflarini mukammal bilish zarur edi. Ta'lim sohasida "Confucian Classics" nomi bilan tanilgan Xitoy falsafiy asarlari asosiy manbalar bo'lib, ularni o'qib-o'rganish yuqori saviyada bilim olishning asosi hisoblangan. Keyinchalik, XV asrda Koreysning Choson sulolasi hukmdori Sejong tomonidan koreylarning o'z yozuv tizimi (**한글**) Hangul alifbosi yaratilgan bo'lsa-da, Xitoy iyerogliflari uzoq vaqt davomida ilmiy va rasmiy yozuvlarda o'z o'rnnini saqlab qolgan.

Xitoy iyerogliflarining Koreys tiliga kirib kelish tarixi nafaqat yozuv tizimining rivojlanishi, balki madaniyatlararo o'zaro ta'sirning yorqin namunasi sifatida ham ahamiyatlidir. Ular nafaqat Koreys madaniy merosining bir qismi bo'lib qolgan, balki zamonaviy tilning boy lug'aviy manbasi sifatida ham xizmat qilmoqda.

Hanja o'rganish Koreyada hanuzgacha dolzarb hisoblanadi. Koreys lug'atida Hanja asosida yaratilgan ko'plab so'zlar mavjud bo'lib, ularning ma'nosini to'liq tushunish uchun iyerogliflarni bilish talab etiladi. Bundan tashqari, tarixiy matnlarni, qonun hujjatlarini va klassik adabiyotlarni tushunish uchun ham Hanja bilimlari zarur. Shu sababli, Hanja Koreys ta'lim tizimida muhim o'rinn tutadi va uni o'rganish til va madaniyatni chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Bugungi kunda Koreyada Hanja o'rganishning asosiy muammolaridan biri bu tilni o'rganayotgan yoshlarning Hanja bilimiga bo'lgan qiziqishining pasayishi hisoblanadi. Zamonaviy texnologiyalar va ta'lim usullarining rivojlanishi bilan Hanja o'rganish qiyinchilik tug'dirishi mumkin, ammo bu tizimning tarixiy va madaniy ahamiyati hanuzgacha yuqori baholanadi. Hanja nafaqat yozuv tizimi, balki Xitoy va Koreya o'rtasidagi madaniy va ilmiy almashinuvning ramzi sifatida ham muhim ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Bu tizim orqali ikki mamlakat o'rtasidagi o'zaro aloqalar mustahkamlanib, Xitoyning boy ilmiy, adabiy va falsafiy merosi Koreys jamiyatiga singdirilgan. Shu tariqa, Hanja Koreysning madaniy boyligini shakllantirishda beqiyos rol o'ynagan va bugungi kungacha bu merosning ahamiyati saqlanib qolgan. Koreyada Hanja yozuvining tarixi va rivojlanishi mamlakatning madaniy, siyosiy va ijtimoiy hayoti bilan chambarchas bog'liq. Hanja yozuvining Koreys jamiyatidagi uzoq muddatli ahamiyati shundaki, u Koreys tilining rivojlanishida nafaqat lingistik balki ijtimoiy rolni ham o'ynagan. Misol uchun, Hanja

orqali o'sha davrda yozilgan asarlar Koreysning tarixiy davrlarini o'rganishda asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Bu esa, o'z navbatida, Koreys xalqining o'z tarixini tushunish va anglashida muhim ahamiyat kasb etadi [2,73].

Hanja yozuvi Koreys jamiyatining yuqori qatlamlari tomonidan faol qo'llanilgan. Zodagonlar va o'qimishli sinf vakillari o'z nutqlarida va yozuvlarida Hanja elementlarini keng qo'llagan. Bu esa Hanja yozuvining ijtimoiy mavqeini oshirgan va uni elitar yozuv tizimi sifatida shakllantirgan. Shuningdek, Hanja orqali yozilgan davlat hujjatlari va qonunlar bugungi kunda ham tarixiy ahamiyatga ega bo'lib, ularning mazmunini to'liq tushunish uchun Hanja bilimlari zarur.

Koreys tili darsliklarida ham Hanja yozuvining o'rni muhim bo'lgan. O'quvchilar Hanja orqali nafaqat so'zlarning ma'nosini, balki ularning kelib chiqishini va lug'aviy xususiyatlarini ham tushunib oladilar. Shu boisdan, Hanja o'rganish nafaqat lingvistik bilimlarni kengaytiradi, balki o'quvchilarga tilning madaniy va tarixiy jihatlarini o'rganish imkonini ham beradi. Bugungi zamonaviy Koreyada Hanja yozuvining ahamiyati kamayib borayotganiga qaramasdan, u hali ham ta'lim tizimining bir qismi sifatida saqlanib qolmoqda. Zamonaviy texnologiyalar va raqamli madaniyatning rivojlanishi Hanja yozuvini o'rganishni osonlashtiruvchi vositalarni yaratdi. Xususan, turli mobil ilovalar va onlayn platformalar orqali o'quvchilar iyerogliflarni o'rganish imkoniyatiga ega bo'lmoqdalar. Hanja yozuvining dolzarbligini ta'kidlash uchun yana bir muhim omil bu uning koreys tilidagi murakkab so'zlarning ma'nosini tushunishda yordam berishidir. Misol uchun, ba'zi bir ko'p ma'noli so'zlarning ma'nosini faqat Hanja orqali aniq ajratish mumkin. Bu esa Hanja yozuvining lingvistik ahamiyatini yanada oshiradi [3,115].

Koreyada Hanja yozuvi nafaqat ta'limda, balki kundalik hayotda ham o'z o'rniga ega. Masalan, turli joy nomlari, odamlarning familiyalari va tarixiy joylar nomlari ko'pincha Hanja asosida yoziladi. Bu esa koreys madaniyati va tarixining ajralmas qismi sifatida Hanja yozuvini ahamiyatini saqlab qoladi. Xulosa qilib aytganda, Hanja yozuvining Koreys madaniy va til merosidagi o'rni beqiyos. Uning tarixi, madaniy ta'siri va lingvistik foydalari Koreyaning til rivojlanishi va o'ziga xosligiga katta hissa qo'shgan. Bugungi kunda ham Hanja o'rganish tilni chuqurroq tushunish va tarixiy ildizlarni bilishda muhim ahamiyatga ega bo'lib qolmoqda. Shu sababli, Hanja yozuvi Koreya ta'lim tizimida va til o'rgatishda alohida o'rin egallab kelmoqda. Hanja yozuvining Koreya tarixidagi o'rnni yanada chuqurroq anglash uchun, uning jamiyat turli sohalaridagi ta'sirini ko'rib chiqish muhimdir. Birinchidan, Hanja yozuvi Koreys tilining leksik boyligini oshirishda katta ro'l o'yagan. Bugungi kunda koreys tilidagi ko'plab murakkab so'zlar Xitoy iyerogliflaridan olingan

bo'lib, ular nafaqat kundalik nutqda, balki rasmiy va ilmiy adabiyotlarda ham keng qo'llaniladi. Masalan, tibbiyat, huquqshunoslik, falsafa va boshqa fan sohalaridagi atamalar asosan Hanja orqali ifodalanadi. Ikkinchidan, Hanja yozuvi madaniyatlararo muloqotda ham muhim ahamiyatga ega bo'lган. Xitoy va Koreys o'rtasidagi tarixiy madaniy aloqalar, savdo va diplomatiya sohalarida Hanja yozuvi asosiy yozma muloqot vositasi bo'lib xizmat qilgan. Bu esa ikki xalq o'rtasidagi o'zaro tushunishni rivojlantirishda katta rol o'ynagan.

Hanja yozuvi diniy matnlarning tarqalishida ham muhim o'rinn tutgan. Koreyada buddizm rivojlangan davrda, diniy matnlar asosan Xitoy iyeroglfilarida yozilgan. Bu matnlar orqali koreys xalqiga diniy qarashlar, falsafiy g'oyalalar va axloqiy qadriyatlar yetkazilgan. Hanja yozuvining diniy ahamiyati hozirgi kunda ham ma'lum darajada saqlanib qolgan bo'lib, tarixiy diniy manbalarni o'qish va o'rganishda qo'llaniladi. Hanja yozuvining tarixi shuningdek, Koreys ijtimoiy tuzilmasi va boshqaruv tizimiga ham ta'sir ko'rsatgan. Joseon sulolasi davrida davlat boshqaruv tizimi Hanja yozuvi asosida tuzilgan bo'lib, bu yozuv davlat hujjatlarini yuritishda, qonunlarni rasmiylashtirishda va davlatning turli darajadagi faoliyatini nazorat qilishda asosiy vosita bo'lган. Bu esa Hanja yozuvining siyosiy va ijtimoiy ahamiyatini yanada oshirgan. Koreys adabiyoti rivojida ham Hanja yozuvi alohida o'rinn tutadi. Dastlabki Koreys adabiy asarlari, jumladan she'riyat va proza asarlari Hanja yozuvida yozilgan. Bu asarlar koreys xalqining qadimiy dunyoqarashi, urfodatlari va qadriyatlarini aks ettirgan. Bugungi kunda bu adabiy manbalar Hanja yozuvining madaniy meros sifatidagi ahamiyatini ko'rsatib beradi [4,88].

Zamonaviy davrda Hanja yozuvi ko'proq tarixiy va madaniy meros sifatida qaralmoqda. Koreys alifbosi Hangul keng qo'llanilsada, Hanja yozuvining o'rni butunlay yo'q bo'lib ketmagan. Masalan, tarixiy joylarning nomlari, muhim rasmiy hujjatlar va eski yozma manbalarda Hanja hali ham mavjud. Shuningdek, Hanja yozuvi koreys tilini o'rganayotgan talabalar uchun tilni chuqurroq tushunishga yordam beradi. Yana bir qiziqarli jihat shundaki, Hanja yozuvi koreys xalqining jahon madaniy merosiga bo'lган hissasini ko'rsatib beradi. Hanja yozuvi orqali koreys tili Xitoy yozma madaniyati bilan uyg'unlashgan holda o'ziga xos rivojlanish yo'lini bosib o'tgan. Bu uyg'unlashuv Koreys madaniyatining boy va xilmaxil bo'lishiga yordam bergan.

Hanja yozuvining Koreys ta'lim tizimida saqlanib qolishi, uning tarixiy va madaniy ahamiyatini ta'kidlaydi. Bugungi kunda ham Koreyada Hanja yozuvini o'rganish va uni zamonaviy til o'qitish jarayoniga integratsiya qilish bo'yicha qiziqish mavjud. Bu nafaqat tilni o'rganishni osonlashtiradi, balki koreys madaniyati va tarixini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Hanja yozuvining boy va murakkab tarixi uni Koreys madaniyati va tilining

ajralmas qismiga aylantirgan. Shu sababli, uni o'rganish va uni yangi avlodga o'rgatish nafaqat lingvistik bilimlarni boyitadi, balki koreys xalqining o'ziga xosligini saqlashga ham xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ahn J. Historical Development of Chinese Characters in the Korean Context. Language History Review, 16(1), 2018. – pp. 61-73.
2. Choi H. Hanja and Its Educational Significance in Korean Schools. Journal of East Asian Linguistics, 25(3), 2019. – pp. 115.
3. Choi Y. Challenges in Teaching Chinese Characters to Korean Learners. Pedagogical Insights, 9(2), 2016. – pp. 88.
4. Huang Y. A Comparative Study of Hanja and Chinese Characters in East Asian Languages. International Journal of Linguistic Studies, 32(1), 2016. – pp. 34-45.
5. Jung E. Chinese Characters and Korean Language: An Intercultural Analysis. East Asian Studies Journal, 22(3), 2018. – pp. 91.
6. Kim J. Language and Culture in Korean Education: A Historical Perspective. Educational Review, 34(4), 2017. – pp. 75-89.
7. Kim T. The Role of Visual Aids in Teaching Chinese Characters in Korean Language Classes. Korean Education Journal, 10(3), 2015. – pp. 125.
8. Lee C. The History of Chinese Characters in Korean Language. Seoul: Korean Linguistics Press, 2018. – 35 p.
9. Lee K. Pedagogical Strategies for Teaching Chinese Characters in Korean Classrooms. Seoul: KOREA Linguistics Association, 2019. – 15 p.
10. Li X. Cultural and Linguistic Integration of Chinese Characters in Korean Society. Journal of Asian Linguistics, 28(2), 2020. – pp. 36.
11. Фуркатовна, Б.И. (2021). ДИСКУРСИО-ПРАГМАТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ КОРЕЙСКИХ И УЗБЕКСКИХ СТАТЕЙ О КОНЦЕПТЕ "/ЧЕЛОВЕК" 사람. Международный журнал менеджмента , 12 (2).
12. Bayonkhanova Iroda Furkatovna Samarkand State Institute of Foreign Languages ASEAN Journal on Science & Technology for Development Vol 39, No 4, 2022, 23-29 DOI 10.5281/zenodo.6457490 © The Author(s) 2022. This article is distributed under a Creative Commons Attribution-ShareAlike 4.0 International license. <http://ajstfd.com/DISCURSIVE-PRAGMATIC CHARACTERISTICS OF ARTICLES EXPRESSING THE>

ETIQUETTE OF COMMUNICATION (ON THE EXAMPLE OF KOREAN AND UZBEK LANGUAGES)

13. Баёнханова Ирода Фуркатовна ДИСКУРСИВНО-ПРАГМАТИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ СТАТЬЕЙ, ВЫРАЖАЮЩИХ ЭТИКЕТ ОБЩЕНИЯ (НА ПРИМЕРЕ КОРЕЙСКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ) // ИДССР. 2023. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/discursive-pragmatic-characteristics-of-articles-expressing-the-etiquette-of-communication-on-the-example-of-korean-and-uzbek> (дата обращения : 30.11.2024).

